



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИССЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	



KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI

G'aniyev Botir Baxtiyorovich

Namangan davlat texnika universiteti,
"Iqtisodiyot" kafedrası tayanch doktoranti

Zakirova Gulnora Mirzaliyevna

Namangan davlat texnika universiteti,
"Iqtisodiyot" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishida bozor infratuzilmalarining o'ri va ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Kichik biznes subyektlarining barqaror faoliyati bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liq ekanini ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot doirasida infratuzilma elementlarini takomillashtirish orqali tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari ishlab chiqilgan hamda amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, bozor infratuzilmasi, tadbirkorlik muhiti, moliyaviy xizmatlar, logistika, innovatsiya, raqamli infratuzilma.

Abstract. The article provides an in-depth analysis of the role and significance of market infrastructures in the economic development of small businesses. It is scientifically substantiated that the stable functioning of small business entities is directly linked to the development level of market infrastructure. Within the framework of the research, effective mechanisms for supporting entrepreneurship through the improvement of infrastructure elements have been developed, along with practical recommendations.

Key words: small business, market infrastructure, business environment, financial services, logistics, innovation, digital infrastructure.

Аннотация. В статье проведён глубокий анализ роли и значимости рыночных инфраструктур в экономическом развитии малого бизнеса. На научной основе обосновано, что стабильная деятельность субъектов малого бизнеса напрямую зависит от уровня развития рыночной инфраструктуры. В рамках исследования разработаны эффективные механизмы поддержки предпринимательства посредством совершенствования инфраструктурных элементов и предложены практические рекомендации.

Ключевые слова: малый бизнес, рыночная инфраструктура, деловая среда, финансовые услуги, логистика, инновации, цифровая инфраструктура.

KIRISH

Hozirgi global raqobat sharoitida kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining eng muhim drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. U yangi ish o'rinlarini yaratadi, ichki bozorni zarur mahsulot va xizmatlar bilan to'ldiradi, innovatsiyalarni joriy etadi hamda sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi. Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy tizimdagi barqaror faoliyati, avvalo, bozor infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liq ekanini ilmiy manbalarda ham qayd etilgan [2; 3; 6; 15].

Bozor infratuzilmasi — moliyaviy, savdo-logistika, axborot, konsalting va innovasion xizmatlarni o'z ichiga olgan ko'p komponentli tizim bo'lib, kichik biznes subyektlariga ishlab chiqarish, savdo va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bozor infratuzilmasi kichik biznes uchun faqat ishlab chiqarish va savdo jarayonlarini qo'llab-quvvatlash bilan cheklanmaydi. U, ayni paytda, biznesning raqobatbardoshligini oshirish, risklarni kamaytirish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash, hamkorlik tarmoqlarini kengaytirish hamda bozorga kirish imkoniyatlarini osonlashtirish kabi strategik afzalliklarni yaratadi.

Bozor infratuzilmasining kichik biznes uchun asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Raqobatbardoshlikni oshirish. Rivojlangan bozor infratuzilmasi tadbirkorlik subyektlariga texnologiyalarni yangilash, marketing strategiyalarini takomillashtirish va bozordagi o'z mavqeini mustahkamlash imkonini beradi.

- Risklarni kamaytirish. Moliyaviy, axborot va konsalting xizmatlari biznesda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni oldindan prognoz qilish, ularga tayyorgarlik ko'rish va oqilona qarorlar qabul qilishga yordam beradi.



- Mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish. Innovasion infratuzilma, texnoparklar va konsultativ xizmatlar mahsulot va xizmatlarning yuqori sifat ko'rsatkichlarini ta'minlaydi.
- Tarmoq va hamkorlik aloqalarini kengaytirish. Biznes inkubatorlari, akseleratorlar, tarmoqlashish platformalari tadbirkorlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi, bilim va tajriba almashinuvi uchun qulay muhit yaratadi.
- Bozorga kirishni yengillashtirish. Savdo va logistika infratuzilmasi mahsulotni tez, ishonchli va tejamkor tarzda iste'molchiga yetkazib berish imkonini oshiradi.
- Innovatsiyalar va raqamli transformatsiyani jadallashtirish. IT-parklar, elektron savdo platformalari, raqamli xizmatlar biznesning yangi texnologiyalarni joriy etish, raqamli iqtisodiyotga moslashish va innovasion yechimlardan foydalanish imkonini kengaytiradi.

Qisqacha aytganda, bozor infratuzilmasining rivojlanganligi kichik biznesning samaradorligi, raqobatbardoshligi, xavfsiz faoliyati va innovatsiyalarga moslashuvchanligini ta'minlaydigan strategik omildir. U kompleks tadbirkorlik muhitini shakllantirib, ishlab chiqarishdan tortib boshqaruvgacha bo'lgan barcha jarayonlarni qo'llab-quvvatlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesni rivojlantirish va uning iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda bozor infratuzilmasining ahamiyati alohida e'tibor talab qiladigan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mamlakat ichki bozorining samarali faoliyat yuritishi, tadbirkorlik jarayonlarining barqarorligi va kichik biznesning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan infratuzilma komponentlarining rivojlanganlik darajasiga bog'liq.

Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" (2021) asarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligi qayd etiladi. Unda tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish, moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirish, logistika tizimini modernizatsiya qilish kabi infratuzilmaviy omillar iqtisodiy o'sishning muhim sharti sifatida ta'kidlanadi.

Abdullayev (2020) va Aripov (2021) tadqiqotlarida kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini, uning funksiyalari va rivojlanish mexanizmlari keng yoritilgan. Mualliflar kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat yuritishi uchun kredit, lizing, sug'urta kabi moliyaviy xizmatlar hamda konsalting, axborot markazlari, logistika tarmoqlari kabi infratuzilma elementlarining zarurligini ilmiy asoslaydi. Aripov (2018) esa tadbirkorlik muhiti va uning infratuzilmaviy asoslarini shakllantirishda institusional islohotlarning ahamiyatiga urg'u beradi.

Xoliqov va Bozorov (2019) bozor infratuzilmasi elementlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilib, kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirishda logistika, axborot-kommunikatsiya va innovatsion infratuzilmaning o'rnini tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Komilov (2021) esa tadbirkorlikni rivojlantirishning institusional asoslarini tahlil qilib, bozor infratuzilmasining modernizatsiyalashuvi kichik biznes subyektlarining investitsiyaviy faolligini oshirishini ta'kidlaydi.

Xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda ham kichik biznes va bozor infratuzilmasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik chuqur o'rganilgan. Porter (1998) mamlakatlar raqobat ustunligini shakllantirishda logistika, innovatsiya va axborot tizimlarining strategik ahamiyatini ta'kidlaydi. Dornbusch, Fischer va Startz (2018) esa bozor infratuzilmasi iqtisodiy barqarorlik va bozor samaradorligini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri ekanini qayd etadi. OECD (2022)ning Entrepreneurship and Small Business Outlook hisobotida infratuzilma sifati kichik biznesning bozorlarga kirish imkoniyatlari, innovatsiyalarni joriy etish sur'atlari va biznesning barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy isbotlangan.

Jahon bankining Doing Business hisobotlari (2018–2020)da transport tarmoqlari, raqamli xizmatlar, huquqiy muhit va logistika tizimlarining samaradorligi kichik biznesning rivojlanish indeksi bilan uzviy bog'liq ekanini qayd etiladi. Tojiyeva (2022) va Jo'rayev (2023) tadqiqotlarida innovatsion infratuzilma, texnoparklar, startup ekotizimlari va raqamli transformatsiya kichik biznes salohiyatini oshiruvchi asosiy omillar sifatida o'rganilgan.

UNDP (2021) hisobotlarida esa rivojlanayotgan davlatlarda bozor infratuzilmasining zaifligi kichik biznesning bozorga kirish tezligi, kapital aylanishi va investitsion jozibadorligiga salbiy ta'sir qilishi ko'rsatilib, infratuzilmani modernizatsiya qilish bo'yicha samarali xalqaro tajribalar tavsiya etiladi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlarning aksariyatida bozor infratuzilmasi kichik biznesning samaradorligi, raqobatbardoshligi va innovatsion rivojiga asos yaratadigan muhim tizim sifatida talqin qilinadi. Moliyaviy, savdo-logistika, axborot, konsalting va innovatsion infratuzilmalar mukammal rivojlanganida kichik biznes subyektlarining bozorga kirish imkoniyatlari kengayadi, xarajatlar kamayadi, risklar pasayadi va biznesning umumiy natijadorligi oshadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot metodologiyasi kichik biznes rivojini ta'minlashda bozor infratuzilmasining ahamiyatini aniqlashga qaratilib, unda nazariy-tahliliy, solishtirma va tizimli yondashuvlar uyg'un holda qo'llanildi. Tadqiqot




jarayonida kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rniga doir ilmiy manbalar, Prezident farmonlari, statistika ma'lumotlari va mavjud infratuzilma elementlari — moliyaviy, logistika, axborot-konsalting va innovatsion infratuzilma tarkibi — chuqur tahlil qilindi. Grafik modellash orqali bozor infratuzilmasining kichik biznesga ta'siri 1–2-rasmlar asosida vizual ifodalandi, mavjud cheklovlar esa amaliy kuzatuvlar asosida aniqlanib, ularning iqtisodiy oqibatlarini mantiqiy tahlil qilindi. Shu tariqa tadqiqot metodologiyasi infratuzilma komponentlari va kichik biznes samaradorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asoslashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aslida kichik biznes iqtisodiyotning eng elastik va tez moslashuvchan segmenti hisoblanadi. Uning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish;
- yangi ish o'rinlarini yaratish;
- ichki va tashqi bozorda raqobat muhitini ta'minlash;
- innovatsiyalarni joriy etish va rivojlantirish.



1-rasm. Bozor infratuzilmasining kichik biznes rivojiga yaratadigan imkoniyatlari




Keltirilgan funksiyalarning har biri shuni anglatadiki, kichik biznes har bir mamlakat iqtisodiyotining eng dinamik, tez moslashuvchan va faoliyatni qisqa muddatda yo'lga qo'ya oladigan muhim sektoridir. Kichik biznes iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, bozor mexanizmlarining faol ishlashiga hissa qo'shadi va raqobat muhitini kuchaytiradi. Raqobatning kuchayishi esa mahsulot va xizmatlar sifatining oshishiga, iste'molchilar manfaatlarining yanada samarali himoya qilinishiga olib keladi.

Bundan tashqari, kichik biznes yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandligini yaxshilaydi, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi hamda aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. U innovatsiyalarni joriy etishda ham yetakchi hisoblanadi, chunki kichik biznes subyektlari yirik korxonalarga nisbatan bozordagi o'zgarishlarga tez javob bera oladi, yangi g'oyalarni sinovdan o'tkazish va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatiga ega.

Demak, yuqorida aytib o'tilgan funksiyalar kichik biznesning iqtisodiy taraqqiyot, bandlik va bozor raqobatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi ekanini yaqqol ko'rsatadi.

Bozor infratuzilmasi esa kichik biznesning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Uning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

- Moliyaviy infratuzilma — banklar, mikrokredit tashkilotlari, lizing kompaniyalari, ventur fondlari va boshqa moliyaviy institutlar.
- Savdo-logistika infratuzilmasi — transport tarmoqlari, omborxonalar, logistika markazlari, elektron savdo platformalari va yetkazib berish tizimlari.
- Axborot va konsalting infratuzilmasi — biznes inkubatorlar, akseleratorlar, IT-parklar, konsalting markazlari va ma'lumotlar bazalari.
- Innovatsion infratuzilma — texnoparklar, startap ekotizimlari, ilmiy-tadqiqot markazlari, innovatsion laboratoriyalar (2-rasm).



2-rasm. Bozor infratuzilmasining asosiy elementlari

Fikrimizcha, kichik biznes rivojlangan infratuzilmasiz samarali faoliyat yurita olmaydi. Buni quyidagi holatlar ham tasdiqlaydi:

- Moliyaviy xizmatlarning yetishmasligi tadbirkorlar uchun zarur sarmoya manbalarini cheklaydi;
- Logistika infratuzilmasining zaifligi mahsulotlarni bozorga kech yetkazilishiga, transport xarajatlarining oshishiga va shu orqali umumiy tannarxning yuqorilashiga olib keladi;
- Axborot va konsalting xizmatlarining rivojlanmaganligi marketing strategiyalari, boshqaruv qarorlari va biznes rejalashtirish jarayonlarining sifatsiz shakllanishiga sabab bo'ladi;
- Innovatsion infratuzilmaning cheklanganligi texnologiya va mahsulotlarning raqobatbardoshligini susaytiradi, modernizatsiya jarayonlarini sekinlashtiradi.

Shu bois, infratuzilma kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda markaziy ahamiyat kasb etadi. U nafaqat tadbirkorlik faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, balki kichik biznesning barqaror o'sishi, raqobatga kirishishi va innovatsion yangilanishi uchun ham asosiy platforma bo'lib xizmat qiladi. Rivojlangan bozor infratuzilmasi tadbirkorlar uchun moliyaviy resurslarga oson kirish imkonini yaratadi, logistika, axborot, huquqiy va konsalting xizmatlaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi, bozor haqidagi ma'lumotlarni aniq qabul qilishga yordam beradi va biznes jarayonlaridagi xatarlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Bundan tashqari, infratuzilma tadbirkorlar o'rtasida ta'lim, ko'nikma almashish, hamkorlik va tarmoqlashuv muhitini shakllantiradi hamda kichik biznesning innovatsion salohiyatini kuchaytiradi. Demak, infratuzilma — kichik biznesning samaradorligi, barqarorligi va raqobatbardoshligini belgilab beruvchi eng muhim omillardan biridir.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy izlanishlar va amaliy tadqiqotlar bozor infratuzilmasining ayrim yo'nalishlarda hali ham takomillashuvga muhtoj ekanini ko'rsatadi. Jumladan:



- arzon va uzoq muddatli kreditlar taklifining cheklanganligi;
- logistika va savdo infratuzilmasining ayrim hududlarda yetarlicha rivojlanmagani;
- raqamli xizmatlardan foydalanish darajasining pastligi;
- biznes inkubatorlar va akseleratorlar sonining cheklanganligi.

Mazkur omillar kichik biznes subyektlarining faoliyatini sekinlashtirishi mumkin. Shu sababli, iqtisodiy islohotlar jarayonida bozor infratuzilmasining barcha yo'nalishlarini kompleks rivojlantirish ustuvor vazifa sanaladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun bir qator taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, moliyaviy infratuzilmani kuchaytirish, ya'ni mikrokreditlar va lizing xizmatlarini kengaytirish, venchur fondlarini rivojlantirish hamda moliyaviy inkluzivlikni oshirish zarur. Shuningdek, logistika va savdo infratuzilmasini modernizatsiya qilish, transport tarmoqlarini kengaytirish, logistika markazlarini raqamlashtirish va elektron savdo platformalaridan foydalanishni ommalashtirish kichik biznesning bozorga kirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, CRM, ERP va elektron buxgalteriya tizimlarini tadbirkorlar faoliyatiga keng joriy etish, shuningdek, IT xizmatlaridan foydalanish madaniyatini oshirish zarur. Innovatsion infratuzilmani kuchaytirish orqali startap ekotizimini rivojlantirish, texnoparklar faoliyatini kengaytirish hamda universitet va biznes o'rtasidagi hamkorlikni faollashtirish mumkin. Bundan tashqari, kadrlar tayyorlash va konsalting xizmatlarini rivojlantirish, marketing, menejment, raqamli savodxonlik hamda biznes boshqaruvi bo'yicha amaliy treninglarni muntazam tashkil etish kichik biznes subyektlarining salohiyatini yanada mustahkamlaydi. Xulosa qilib aytganda, kichik biznes rivoji mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Uning samarali faoliyati, avvalo, bozor infratuzilmasining puxta shakllanganligi va muntazam takomillashib borishiga bog'liq. Shu bois bozor infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. Abdullayev Y. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asoslari. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2020.
3. Aripov O. A. Kichik biznes va tadbirkorlik. Darslik. – Namangan, 2021.
4. Aripov O. A. O'zbekistonda kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. Monografiya. – Toshkent: "Lesson Press" nashriyoti, 2021. – 236 b.
5. Aripov O. A. (2018). Osnovnyye komponenty formirovaniya delovoy sredy i masshtabnyye razvitiya v ekonomike Uzbekistan. // Regionalnyye problemy preobrazovaniya ekonomiki: integratsionnyye prosessy i mexanizmy formirovaniya i sotsialno-ekonomicheskaya politika regiona. – S. 121–123.
6. Xoliqov A., Bozorov M. Bozor infratuzilmasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "Iqtisod va moliya", 2019.
7. Komilov N. Tadbirkorlikni rivojlantirishning institusional asoslari. – Toshkent: "Fan", 2021.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga oid normativ-huquqiy hujjatlar (2017–2024).
9. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – Harvard Business Review Press, 1998.
10. Dornbusch R., Fischer S., Startz R. Macroeconomics. – McGraw-Hill, 2018.
11. OECD. Entrepreneurship and Small Business Outlook. – OECD Publishing, 2022.
12. World Bank. Doing Business Reports: Small and Medium Business Development Indicators (2018–2020).
13. Kotler P., Armstrong G. Principles of Marketing. – Pearson, 2019.
14. Tojiyeva N. Biznes infratuzilmasi va innovatsiyalarni rivojlantirish yo'nalishlari. – Toshkent: "Innovatsiya", 2022.
15. Fatxullayev A. Infratuzilmaning iqtisodiy mazmuni va uning bozor sharoitidagi ahamiyati. – Ilmiy maqola, "Iqtisod va ta'lim" jurnali, 2020.
16. UNDP. Small Business Support and Market Infrastructure Development. – UNDP Report, 2021.
17. Jo'rayev Q. Tadbirkorlik infratuzilmasi va uning rivojlanish mexanizmlari. – Toshkent: "Ma'rifat", 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
